Tadqiqotning maqsadi bojxona munosabatlarida sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishni huquqiy tartibga solishning nazariy-huquqiy asoslarini tahlil qilish, xorijiy davlatlar tajribasi va xalqaro standartlarni o'rganish hamda O'zbekiston Respublikasi Bojxona kodeksini zamonaviy texnologik rivojlanish tendensiyalariga mos ravishda takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflarni ishlab chiqishdan iborat. Mazkur maqsaddan kelib chiqib, bojxona munosabatlarida sun'iy intellekt texnologiyalarining huquqiy mohiyatini tadqiq etish, Bojxona kodeksining 15- va 188-moddalarining amaldagi holatini tahlil qilish, avtomatlashtirilgan deklaratsiyalash va sun'iy intellektga asoslangan risklarni boshqarish tizimlarini huquqiy tartibga solishning o'ziga xos jihatlarini aniqlash hamda bojxona nazoratining zamonaviy shakllarini milliy qonunchilikka implementatsiya qilish istiqbollarini ilmiy jihatdan asoslash tadqiqotning asosiy vazifalari sifatida belgilangan.

Bojxona munosabatlarini raqamlashtirish va sun'iy intellekt texnologiyalaridan samarali foydalanishning huquqiy asoslarini takomillashtirish nafaqat bojxona nazoratining samaradorligini oshirishda, balki O'zbekiston Respublikasining global raqamli iqtisodiyotga integratsiyalashuvi hamda xalqaro savdo munosabatlarida raqobatbardoshligini ta'minlashda alohida ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot natijalari milliy bojxona qonunchiligini zamonaviy xalqaro standartlar asosida takomillashtirish hamda bojxona ma'muriyatchiligida sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning huquqiy mexanizmlarini shakllantirishga qaratilgan ilmiy-huquqiy takliflar ishlab chiqish uchun nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Asosiy qism

Bojxona munosabatlarida sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning nazariy-huquqiy asoslari

XXI asrda raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi davlat boshqaruvining deyarli barcha sohalarida zamonaviy texnologiyalarni joriy etish zaruratini yuzaga keltirdi. Xususan, xalqaro savdo hajmining ortishi, transchegaraviy elektron tijoratning rivojlanishi hamda bojxona operatsiyalarining murakkablashuvi bojxona ma'muriyatchiligini avtomatlashtirishning yangi mexanizmlarini ishlab chiqishni taqozo etmoqda. Shu nuqtayi nazardan, sun'iy intellekt texnologiyalari bojxona nazoratini amalga oshirish, risklarni boshqarish, ma'lumotlarni tahlil qilish va deklaratsiyalash jarayonlarini takomillashtirishning muhim vositasi sifatida namoyon bo'lmoqda.

Sun'iy intellekt tushunchasi ilk bor texnologik kategoriya sifatida shakllangan bo'lsada, bugungi kunda u huquqiy munosabatlarning ham ajralmas qismiga aylanib ulgurdi. Xalqaro miqyosda sun'iy intellekt inson tomonidan belgilangan maqsadlarga erishish uchun ma'lumotlarni tahlil qilish, o'rganish, prognozlash hamda muayyan qarorlar qabul qilish imkoniyatiga ega bo'lgan dasturiy-texnologik tizim sifatida e'tirof etiladi (Russel & Norvig, 2021). Zamonaviy yondashuvlarga ko'ra, sun'iy intellekt tizimlari nafaqat ma'lumotlarni qayta ishlash vositasi, balki davlat boshqaruvi jarayonlarini optimallashtiruvchi va qarorlar qabul qilishning samaradorligini oshiruvchi texnologik mexanizm sifatida ham baholanmoqda.

Bojxona ma'muriyatchiligida sun'iy intellektdan foydalanishning asosiy maqsad-

lari bojxona nazoratining samaradorligini oshirish, inson omili bilan bog‘liq xatolarni kamaytirish hamda transchegaraviy savdo jarayonlarini tezkor va shaffof amalga oshirishdan iboratdir. Xususan, sun’iy intellekt texnologiyalari katta hajmdagi ma’lumotlarni qisqa vaqt ichida tahlil qilish, noqonuniy tovar aylanmasini aniqlash, bojxona xavflarini prognozlash hamda bojxona nazoratini masofadan turib amalga oshirish imkoniyatlarini yaratmoqda. Jahon bojxona tashkiloti tomonidan 2025-yilda e’lon qilingan hisobotda sun’iy intellekt va mashinali o‘qitish texnologiyalari bojxona sohasini transformatsiya qiluvchi eng muhim texnologiyalardan biri sifatida e’tirof etilgan bo‘lib, mazkur texnologiyalar risklarni boshqarish, kontrabanda holatlarini aniqlash, hujjatlarni avtomatlashtirilgan tahlil qilish hamda bojxona operatsiyalarini raqamlashtirishda samarali qo‘llanayotgani ta’kidlangan (Fenwick et al., 2017).

Bugungi kunda “raqamli bojxona” (*Digital Customs* yoki *Smart Customs*) konsepsiyasi xalqaro bojxona amaliyotining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Mazkur konsepsiya bojxona xizmatlarini to‘liq yoki qisman raqamlashtirish, sun’iy intellekt, blokcheyn, IoT hamda bulutli texnologiyalardan foydalanish orqali bojxona tartib-taomillarining samaradorligini oshirishni nazarda tutadi. Jahon bojxona tashkiloti tomonidan amalga oshirilayotgan *Smart Customs* loyihasi doirasida sun’iy intellekt texnologiyalarining bojxona nazoratida qo‘llanishi bo‘yicha alohida tavsiyalar ishlab chiqilgan bo‘lib, unda bojxona organlarining texnologik tayyorgarligi, ma’lumotlar xavfsizligi, SI tizimlarini boshqarish hamda huquqiy tartibga solish masalalariga alohida e’tibor qaratilgan.

Xorijiy davlatlar tajribasi ham bojxona munosabatlarini raqamlashtirishning samaradorligini namoyon etmoqda. Xususan, Xitoy bojxona ma’muriyati sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish bo‘yicha yetakchi davlatlardan biri bo‘lib, bojxona nazoratining turli yo‘nalishlarida o‘nlab sun’iy intellekt modellarini joriy etgan. Mazkur tizimlar deklaratsiyalarni avtomatik tahlil qilish, xavflarni baholash hamda kontrabandaga qarshi kurashish jarayonlarida qo‘llanmoqda. Shuningdek, Shveysariya bojxona ma’muriyati ham sun’iy intellekt texnologiyalarini bojxona operatsiyalariga integratsiyalash bo‘yicha Jahon bojxona tashkiloti bilan hamkorlikda maxsus tadqiqot dasturlarini amalga oshirmoqda.

Bundan tashqari, xalqaro savdo munosabatlarining raqamlashtirilishi sun’iy intellekt texnologiyalarining ahamiyatini yanada oshirmoqda. Jahon savdo tashkilotining hisobotlariga ko‘ra, sun’iy intellekt texnologiyalarining rivojlanishi 2040-yilga borib xalqaro savdo hajmining sezilarli darajada oshishiga xizmat qilishi mumkin. Shu bilan birga, xalqaro savdo jarayonlarining avtomatlashtirilishi bojxona organlari oldiga yangi huquqiy va tashkiliy vazifalarni qo‘ymoqda (United Nations Conference on Trade and Development, 2025). Xususan, avtomatlashtirilgan deklaratsiyalash, sun’iy intellekt asosida xavflarni baholash hamda bojxona nazoratining masofaviy shakllarini huquqiy jihatdan tartibga solish zarurati yuzaga kelyapti.

O‘zbekiston Respublikasida ham bojxona munosabatlarini raqamlashtirish bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilayotgan bo‘lsa-da, amaldagi Bojxona kodeksida sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning huquqiy asoslari to‘laqonli tartibga solinmagan. Xususan, “avtomatlashtirilgan deklaratsiyalash”, “sun’iy intellektga asoslangan risklarni boshqarish tizimi”, “bojxonada raqamli texnologiyalar” kabi tushunchalarning qonunchilik darajasida mustahkamlanmagani, shuningdek, bojxona nazoratining zamonaviy raqamli shakllariga huquqiy maqom belgilanmagani mazkur sohadagi mavjud huquqiy bo‘shliqlarni yuzaga keltirmoqda. Shu sababli bojxona munosabatlarida sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning nazariy-huquqiy asoslarini tadqiq etish, xalqaro standartlar hamda xorijiy dav-

latlar tajribasi asosida O‘zbekiston Respublikasi Bojxona kodeksini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Bojxona kodeksining 15-moddasini takomillashtirishning huquqiy masalalari

Bojxona munosabatlarini raqamlashtirish xalqaro savdo munosabatlarining jadal rivojlanishi hamda transchegaraviy elektron tijorat hajmining ortishi bilan chambarchas bog‘liqdir. Zamonaviy bojxona ma’muriyatchiligi nafaqat bojxona nazoratini amalga oshirish, balki katta hajmdagi ma’lumotlarni qayta ishlash, xavflarni oldindan aniqlash hamda deklaratsiyalash jarayonlarini avtomatlashtirishni ham o‘z ichiga oladi (Moens & Trone, 2010). Shu bois bojxona sohasida qo‘llanayotgan yangi texnologik vositalarning huquqiy maqomini qonunchilik darajasida belgilash alohida ahamiyat kasb etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Bojxona kodeksining 15-moddasi bojxona munosabatlarida qo‘llanadigan asosiy tushunchalarni o‘zida mujassam etgan bo‘lib, mazkur norma bojxona qonunchiligining konseptual asosini tashkil etadi (Republic of Uzbekistan, 2016). Moddada bojxona brokeri, deklarant, deklaratsiya, bojxona operatsiyalari hamda bojxona nazoratiga oid qator tushunchalar o‘z ifodasini topgan bo‘lsa-da, amaldagi tahrirda sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish bilan bog‘liq tushunchalar o‘rin olmagan. Vaholanki, bugungi kunda bojxona ma’muriyatchiligida deklaratsiyalarni avtomatlashtirilgan tartibda qayta ishlash, risklarni sun’iy intellekt yordamida tahlil qilish hamda bojxona nazoratini raqamli texnologiyalar asosida amalga oshirish xalqaro amaliyotning ajralmas qismiga aylangan.

Mazkur holat amaldagi normaning texnologik taraqqiyot sur’atlaridan ma’lum darajada ortda qolayotganini ko‘rsatadi. Chunki huquqiy tushunchalarning qonunchilik darajasida mustahkamlanmagani sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish jarayonida huquqni qo‘llash amaliyotida turli talqinlarning yuzaga kelishiga sabab bo‘lishi mumkin. Shu jihatdan qaralganda, Bojxona kodeksining 15-moddasini zamonaviy texnologik munosabatlarga mos ravishda takomillashtirish zarurati mavjud.

Xalqaro bojxona amaliyotida “avtomatlashtirilgan deklaratsiyalash” instituti bojxona tartib-taomillarini soddalashtirishning muhim vositalaridan biri sifatida e’tirof etiladi. Jahon bojxona tashkilotining raqamli bojxona konsepsiyasiga ko‘ra, deklaratsiyalarni sun’iy intellekt texnologiyalari yordamida qayta ishlash bojxona operatsiyalarini tezlashtirish, inson omili bilan bog‘liq xatolarni kamaytirish hamda bojxona nazoratining samaradorligini oshirish imkonini beradi. Shu bilan birga, avtomatlashtirilgan deklaratsiyalash bojxona organlari va tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilari o‘rtasidagi ma’lumot almashinuvining shaffofligini ta’minlashga ham xizmat qiladi (Allende, 2022).

Huquqiy nuqtayi nazardan avtomatlashtirilgan deklaratsiyalash deklarantning huquq va majburiyatlarini bekor qilmaydi. Aksincha, sun’iy intellekt tizimlari deklaratsiyalash jarayonining texnologik vositasi sifatida namoyon bo‘lib, bojxona operatsiyalarining tezkorligini ta’minlaydi. Shu sababli mazkur institutning qonunchilik darajasida mustahkamlanishi deklaratsiyalashning zamonaviy shakllarini huquqiy jihatdan e’tirof etish imkonini beradi.

Bugungi kunda sun’iy intellekt texnologiyalarini eng samarali qo‘llash yo‘nalishlaridan biri risklarni boshqarish tizimlari hisoblanadi. Bojxona sohasida SI asosidagi risklarni boshqarish tizimlari katta hajmdagi ma’lumotlarni qisqa muddat ichida tahlil qilish, kontrabanda va bojxona qonunchiligi buzilishi ehtimolini prognozlash hamda xavf darajasi yuqori operatsiyalarni aniqlash imkoniyatiga ega. Xususan, mazkur tizimlar tovarlarning kelib chiqish mamlakati, narxi, tashish yo‘nalishi hamda tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilarining oldingi faoliyatini

kompleks tahlil qilish orqali bojxona nazoratining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Jahon bojxona tashkiloti tadqiqotlariga ko‘ra, sun’iy intellekt texnologiyalarini xavflarni boshqarish tizimlariga joriy etish bojxona resurslaridan samarali foydalanishni ta’minlaydi ва noqonuniy savdo operatsiyalarini aniqlash samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Shu sababli “SIga asoslangan risklarni boshqarish tizimi” tushunchasining Bojxona kodeksida mustahkamlanishi nafaqat huquqiy aniqlikni ta’minlaydi, balki bojxona ma’muriyatchiligini xalqaro standartlarga moslashtirishga ham xizmat qiladi (Singh, 2026).

Bundan tashqari, amaldagi qonunchilikda “bojxonada raqamli texnologiyalar” tushunchasining mavjud emasligi bojxona sohasida qo‘llanayotgan zamonaviy texnologik vositalarning yagona huquqiy maqomini belgilash imkonini cheklaydi. Mazkur tushuncha sun’iy intellekt tizimlari, ma’lumotlar bazalari, axborot tizimlari hamda boshqa raqamli texnologiyalarni yagona huquqiy kategoriya sifatida e’tirof etish imkonini beradi. Bu esa bojxona operatsiyalarining kelgusida yanada kengroq raqamlashtirilishi uchun mustahkam huquqiy asos yaratadi.

Shunday qilib, O‘zbekiston Respublikasi Bojxona kodeksining 15-moddasini takomillashtirish zarurati bir necha omillar bilan izohlanadi. Birinchidan, xalqaro bojxona amaliyotida sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning kengayib borayotgani milliy qonunchilikni zamonaviy tendensiyalarga moslashtirishni talab etmoqda. Ikkinchidan, avtomatlashtirilgan deklaratsiyalash hamda SI asosidagi risklarni boshqarish tizimlarining huquqiy maqomini qonunchilik darajasida belgilash bojxona munosabatlarida huquqiy aniqlikni ta’minlaydi (Allende, 2022). Uchinchidan, bojxonada raqamli texnologiyalar tushunchasining joriy etilishi bojxona ma’muriyatchiligini raqamlashtirishning istiqboldagi yo‘nalishlarini huquqiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash imkonini beradi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, Bojxona kodeksining 15-moddasiga “avtomatlashtirilgan deklaratsiyalash”, “SIga asoslangan risklarni boshqarish tizimi” hamda “bojxonada raqamli texnologiyalar” tushunchalarini kiritish taklif etiladi. Mazkur o‘zgartirishlar bojxona munosabatlarini zamonaviy texnologik jarayonlarga moslashtirish, bojxona nazoratining samaradorligini oshirish hamda O‘zbekiston Respublikasining xalqaro raqamli bojxona standartlariga integratsiyalashuviga xizmat qiladi.

Bojxona nazoratida sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning huquqiy masalalari

Bojxona nazoratini amalga oshirishning zamonaviy mexanizmlari xalqaro savdo munosabatlarining rivojlanishi, transchegaraviy elektron tijorat hajmining ortishi hamda bojxona operatsiyalarining murakkablashuvi bilan bevosita bog‘liqdir. Mazkur jarayonlar bojxona organlari oldiga nafaqat nazoratning samaradorligini oshirish, balki katta hajmdagi ma’lumotlarni tezkor va ishonchli qayta ishlash vazifasini ham qo‘ymoqda (CAF Development Bank of Latin America, 2022). Shu sababli sun’iy intellekt va boshqa raqamli texnologiyalarni bojxona nazoratiga joriy etish bugungi kunda xalqaro amaliyotning ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida e’tirof etilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Bojxona kodeksining 188-moddasida bojxona nazoratining asosiy shakllari, jumladan, hujjatlar va ma’lumotlarni tekshirish, bojxona ko‘rigi, shaxsiy ko‘rik, bojxona identifikatsiyasi hamda tovarlar chiqarilgandan keyingi bojxona nazorati nazarda tutilgan (Republic of Uzbekistan, 2016). Mazkur normalar an’anaviy bojxona nazoratini amalga oshirish uchun yetarli huquqiy asoslarni belgilab bergan bo‘lsa-da, amaldagi modda zamonaviy raqamli texnologiyalar, xususan, sun’iy intellekt tizimlaridan foydalanishga asoslangan bojxona nazoratining yangi shakllarini qamrab olmagan.

Bugungi kunda xalqaro amaliyot shuni ko‘rsatmoqdaki, bojxona nazorati faqatgi-

na inson omiliga asoslangan tizim sifatida emas, balki katta hajmdagi ma'lumotlarni avtomatik ravishda tahlil qiluvchi intellektual texnologik tizim sifatida ham shakllanmoqda. Xalqaro savdo hajmining jadal o'sishi bojxona organlari tomonidan har kuni millionlab ma'lumotlarni qayta ishlash zaruratini yuzaga keltirmoqda. Bunday sharoitda sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish bojxona nazoratining samaradorligini oshirish hamda bojxona resurslaridan oqilona foydalanish imkonini beradi.

Sun'iy intellekt tizimlari yordamida avtomatlashtirilgan risklarni baholash bojxona ma'muriyatchiligida eng istiqbolli yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Mazkur texnologiyalar bojxona deklaratsiyalarini, tovarlarning kelib chiqish mamlakatini, tashish yo'nalishlarini, narx ko'rsatkichlarini hamda tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilarining avvalgi operatsiyalarini kompleks tahlil qilish imkoniyatiga ega. Natijada xavf darajasi yuqori bo'lgan operatsiyalar avtomatik ravishda aniqlanib, bojxona organlari resurslari aynan shunday operatsiyalarni chuqurlashtirilgan tartibda nazorat qilishga yo'naltiriladi (Fenwick et al., 2017).

Avtomatlashtirilgan risklarni baholash tizimlarining huquqiy tabiati shundan iboratki, ular inson tomonidan qabul qilinadigan yakuniy qarorni almashtirmaydi, balki bojxona organlarining qaror qabul qilish jarayonini samarali tashkil etishga xizmat qiladi. Shu sababli sun'iy intellekt tizimlarini bojxona nazoratining mustaqil subyekti sifatida emas, balki bojxona organlari tomonidan foydalaniladigan zamonaviy texnologik vosita sifatida baholash maqsadga muvofiqdir. Mazkur yondashuv xalqaro amaliyotda ham keng qo'llanib, bojxona nazoratining shaffofligi va huquqiy aniqligini ta'minlashga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish bojxona nazoratining yangi shakli – masofaviy bojxona nazoratini rivojlantirish imkonini bermoqda. Raqamli texnologiyalar yordamida amalga oshiriladigan masofaviy bojxona nazorati bojxona organlariga tovarlar va transport vositalari to'g'risidagi ma'lumotlarni real vaqt rejimida monitoring qilish imkoniyatini yaratadi. Xususan, zamonaviy sensorlar, ma'lumotlar bazalari, avtomatlashtirilgan monitoring tizimlari hamda sun'iy intellekt asosidagi analitik vositalardan foydalanish bojxona operatsiyalarining samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

Masofaviy bojxona nazoratining joriy etilishi bir qator huquqiy masalalarni ham yuzaga keltiradi. Xususan, sun'iy intellekt tizimlari tomonidan qayta ishlanadigan ma'lumotlarning ishonchliligi, axborot xavfsizligini ta'minlash hamda bojxona organlarining vakolatlari chegaralarini aniq belgilash alohida ahamiyat kasb etadi. Shu bois mazkur texnologiyalardan foydalanishning umumiy huquqiy asoslarini qonunchilik darajasida mustahkamlash zarur hisoblanadi (Giroud & Bonilla-Feret, 2025).

Xalqaro amaliyotda bojxona nazoratini raqamlashtirish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jahon bojxona tashkiloti tomonidan ishlab chiqilgan *Smart Customs* konsepsiyasi doirasida sun'iy intellekt va mashinali o'qitish texnologiyalaridan foydalanish bojxona ma'muriyatchiligining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Mazkur hujjatlarda bojxona nazoratida xavflarni avtomatlashtirilgan tartibda baholash, ma'lumotlarni intellektual tahlil qilish hamda bojxona operatsiyalarini raqamlashtirish masalalari alohida yoritilgan. Shuningdek, xalqaro amaliyotda sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish bojxona nazoratini soddalashtirish bilan bir qatorda, noqonuniy savdo operatsiyalarini aniqlash samaradorligini ham oshirmoqda.

Xitoy, Janubiy Koreya, Singapur hamda Yevropa davlatlarining bojxona ma'muriyatchiligida sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish tajribasi mazkur texnologiyalarning amaliy samaradorligini namoyon etmoqda. Xususan, sun'iy intellekt yordamida

bojxona xavflarini prognozlash, tovarlarni avtomatlashtirilgan tarzda identifikatsiya qilish hamda masofaviy monitoring tizimlarini joriy etish bojxona tartib-taomillarini sezilarli darajada optimallashtirish imkonini bermoqda (Mani et al., 2026). Mazkur tajriba milliy qonunchilikni takomillashtirishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Bojxona kodeksining 188-moddasi tahlili shuni ko‘rsatadiki, amaldagi normada bojxona nazoratining raqamli shakllarini mustaqil ravishda huquqiy tartibga soluvchi qoidalar mavjud emas. Xususan, sun’iy intellekt tizimlari yordamida avtomatlashtirilgan risklarni tahlil qilish hamda raqamli texnologiyalar asosida masofaviy bojxona nazoratini amalga oshirishning huquqiy asoslari belgilanmagan. Natijada mazkur texnologiyalarni amaliyotga keng joriy etish jarayonida huquqiy aniqlik bilan bog‘liq ayrim masalalar yuzaga kelishi mumkin.

Shu munosabat bilan Bojxona kodeksining 188-moddasiga sun’iy intellekt tizimlari yordamida avtomatlashtirilgan risklarni tahlil qilish va baholash, raqamli texnologiyalar yordamida tovarlar hamda transport vositalarini masofadan nazorat qilish kabi bojxona nazoratining yangi shakllarini kiritish ilmiy, amaliy jihatdan asoslangan taklif sifatida baholanishi mumkin. Bundan tashqari, bojxona nazoratini amalga oshirish jarayonida sun’iy intellekt tizimlari va boshqa raqamli texnologiyalardan foydalanish imkoniyatining qonunchilik darajasida mustahkamlanishi hamda ulardan foydalanish tartibini vakolatli davlat organi tomonidan belgilash bojxona ma’muriyatchiligini zamonaviy xalqaro standartlarga moslashtirishga xizmat qiladi.

Demak, Bojxona kodeksining 188-moddasini takomillashtirish nafaqat bojxona nazoratining samaradorligini oshirish, balki bojxona munosabatlarini raqamli transformatsiya qilish hamda O‘zbekiston Respublikasining xalqaro raqamli bojxona tizimiga integratsiyalashuvini ta’minlash nuqtayi nazaridan ham alohida ahamiyat kasb etadi.

Xulosa

Bugungi kunda sun’iy intellekt texnologiyalarining jadal rivojlanishi davlat boshqaruvi va huquqiy munosabatlarning deyarli barcha sohalariga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Xususan, bojxona ma’muriyatchiligida sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish bojxona tartib-taomillarini soddalashtirish, transchegaraviy savdo jarayonlarini jadallashtirish, risklarni samarali boshqarish hamda inson omili bilan bog‘liq xatolarni kamaytirish imkonini bermoqda. Jahon bojxona tashkiloti, Yevropa Ittifoqi, AQSH, Singapur va Janubiy Koreya kabi davlatlarning ilg‘or tajribasi bojxona tizimida sun’iy intellekt va raqamli texnologiyalarni qo‘llash xalqaro savdo xavfsizligini ta’minlash bilan bir qatorda bojxona nazoratining samaradorligini ham sezilarli darajada oshirganini ko‘rsatmoqda.

Olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, O‘zbekiston Respublikasi Bojxona kodeksi zamonaviy raqamli texnologiyalarni joriy etish uchun zarur bo‘lgan umumiy huquqiy mexanizmlarni nazarda tutgan bo‘lsada, unda sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning o‘ziga xos jihatlarini tartibga soluvchi maxsus normalar mavjud emas. Xususan, Bojxona kodeksining 15-moddasida bojxona munosabatlarida qo‘llanadigan zamonaviy texnologik tushunchalarning huquqiy ta’rifi berilmaganligi, 188-moddada esa bojxona nazoratining yangi raqamli shakllari nazarda tutilmaganligi ushbu sohada muayyan huquqiy bo‘shliqlarni yuzaga keltirmoqda.

Tadqiqot davomida xalqaro hujjatlar, xorijiy davlatlar tajribasi hamda bojxona ma’muriyatchiligini raqamlashtirishning zamonaviy tendensiyalari qiyosiy-huquqiy jihatdan tahlil qilinib, milliy qonunchilikni takomillashtirishning ilmiy asoslari ishlab chiqildi. Xususan, sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish bojxona nazoratining samaradorligini oshirish, avtomatlashtirilgan deklaratsiyalash tizimlarini joriy etish hamda

intellektual risklarni boshqarish mexanizmlarini huquqiy jihatdan mustahkamlash zaruratini yuzaga keltirishi asoslab berildi.

Shundan kelib chiqib, O‘zbekiston Respublikasi Bojxona kodeksining 15-moddasini takomillashtirish maqsadida quyidagi qo‘shimcha va o‘zgartirishlarni kiritish maqsadga muvofiq:

1. Bojxona kodeksiga “avtomatlashtirilgan deklaratsiyalash” tushunchasini kiritish va uni sun’iy intellekt tizimlari yordamida insonning bevosita ishtirokisiz amalga oshiriladigan deklaratsiyalash jarayoni sifatida huquqiy jihatdan mustahkamlash;

2. “SIga asoslangan risklarni boshqarish tizimi” tushunchasini joriy etish hamda bojxona qonunchiligini buzish xavfini aniqlash, tahlil qilish va prognozlashda sun’iy intellekt algoritmlaridan foydalanishning huquqiy asoslarini belgilash;

3. “Bojxonada raqamli texnologiyalar” tushunchasini qonunchilikka kiritish orqali bojxona operatsiyalari va bojxona nazoratida foydalaniladigan axborot tizimlari, ma’lumotlar bazalari, sun’iy intellekt tizimlari hamda boshqa zamonaviy texnologik vositalarning huquqiy maqomini belgilash.

Mazkur takliflarning amaliy ifodasi sifatida O‘zbekiston Respublikasi Bojxona kodeksining 15-moddasini quyidagi normalar bilan to‘ldirish taklif etiladi:

1) “avtomatlashtirilgan deklaratsiyalash – bevosita inson ishtirokisiz sun’iy intellekt tizimlaridan foydalangan holda amalga oshiriladigan tovarlar va transport vositalarini deklaratsiyalash jarayoni”;

2) “SIga asoslangan risklarni boshqarish tizimi – bojxona qonunchiligini buzish xavfini tahlil qilish, prognozlash va aniqlash uchun sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanadigan dasturiy vositalar va algoritmlar majmuyi”;

3) “bojxonada raqamli texnologiyalar – bojxona operatsiyalari va bojxona nazoratida foydalaniladigan axborot tizimlari, dasturiy ta’minot, ma’lumotlar bazalari, sun’iy intellekt tizimlari va boshqa texnologik yechimlar”.

Shuningdek, tadqiqot davomida Bojxona kodeksining 188-moddasini takomillashtirish zarurati ham ilmiy jihatdan asoslandi. Zamonaviy bojxona ma’muriyatchiligi inson omiliga asoslangan nazoratdan ma’lumotlarga asoslangan intellektual nazorat tizimlariga o‘tishni talab etmoqda. Shu sababli bojxona nazoratining yangi shakllarini qonunchilik darajasida mustahkamlash dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Shundan kelib chiqib, Bojxona kodeksining 188-moddasiga quyidagi qo‘shimchalarni kiritish maqsadga muvofiq:

1) sun’iy intellekt tizimlaridan foydalangan holda avtomatlashtirilgan risklarni tahlil qilish va baholashni bojxona nazoratining mustaqil shakli sifatida e’tirof etish;

2) raqamli texnologiyalar yordamida tovarlar va transport vositalarini masofadan monitoring qilish institutini joriy etish hamda uning huquqiy asoslarini belgilash;

3) bojxona nazoratini amalga oshirishda sun’iy intellekt tizimlari va boshqa raqamli texnologiyalardan ma’lumotlarni yig‘ish, qayta ishlash hamda tahlil qilish maqsadlarida foydalanish imkoniyatini qonunchilik darajasida mustahkamlash;

4) sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish tartibini vakolatli davlat organi tomonidan belgilash orqali mazkur sohada huquqiy aniqlikni ta’minlash.

Mazkur takliflarning amaliy ifodasi sifatida Bojxona kodeksining 188-moddasiga quyidagi normalarni kiritish taklif etiladi:

1) “sun’iy intellekt tizimlaridan foydalangan holda avtomatlashtirilgan xavflarni tahlil qilish va baholash”;

2) “raqamli texnologiyalardan foydalangan holda tovarlar va transport vositalarini masofadan nazorat qilish”;

3) “bojxona nazoratini amalga oshirishda bojxona chegarasi orqali olib o‘tilayotgan tovarlar va transport vositalari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni yig‘ish, tahlil qilish va qayta

ishlash jarayonlarini avtomatlashtirish uchun sun'iy intellekt tizimlari va boshqa raqamli texnologiyalardan foydalanish mumkin";

4) "bojxona nazoratini amalga oshirishda sun'iy intellekt tizimlaridan foydalanish tartibi O'zbekiston Respublikasi vakolatli davlat organi tomonidan belgilanadi".

Xulosa qilib aytganda, Bojxona kodeksiga taklif etilayotgan o'zgartirish va qo'shimchalar sun'iy intellekt texnologiyalarini bojxona ma'muriyatchiligiga bosqichma-bosqich va xavfsiz integratsiya qilishning huquqiy asoslarini yaratadi. Mazkur takliflarning amalga oshirilishi bojxona nazoratining samaradorligini oshirish, transchegaraviy savdo jarayonlarini soddalashtirish, risklarni boshqarish tizimini takomillashtirishga, O'zbekiston Respublikasining xalqaro raqamli bojxona makoniga integratsiyalashuviga xizmat qiladi. Shu bilan birga, ushbu o'zgartirishlar Jahon bojxona tashkilotining bojxona ma'muriyatchiligini raqamlashtirish bo'yicha zamonaviy standartlari va xalqaro tendensiyalariga ham to'liq mos keladi.

REFERENCES

Allende, J. (2022). *World Customs Organization*. Springer International Publishing.

Anderson, D., Belcineanu, A.-I., & Tzvetkova, M. (2025). *AI for border management and customs controls*. Publications Office of the European Union. https://doi.org/10.2760/1286492

CAF Development Bank of Latin America. (2022). *The strategic and responsible use of artificial intelligence in the public sector of Latin America and the Caribbean*. OECD Publishing.

Fenwick, M., Kaal, W. A., & Vermeulen, E. P. (2017). Regulation tomorrow: What happens when technology is faster than the law? *American University Business Law Review, 6*(3).

Ghiran, A., Hakami, A., Bontoux, L., & Scapolo, F. (2020). *The future of customs in the EU 2040*. Publications Office of the European Union.

Giroud, A., & Bonilla-Feret, S. (2025). *World investment report 2024: Investment facilitation and digital government*. United Nations Conference on Trade and Development.

Hoekman, B. M., & Kostecki, M. M. (2009). *The political economy of the world trading system: The WTO and beyond*. Oxford University Press.

Kaplan, A., & Haenlein, M. (2019). Siri, Siri, in my hand: Who's the fairest in the land? On the interpretations, illustrations, and implications of artificial intelligence. *Business Horizons, 62*(1), 15–25.

Mani, T. N., Kodali, S. K., Joshi, P., & Saravanan, S. (2026). *Artificial intelligence: A modern approach*. BR Publications.

Moens, G., & Trone, J. (2010). *Commercial law of the European Union* (Vol. 4). Springer.

Radjapova, L. S. (2026). Improving digitalization processes in the customs system of the Republic of Uzbekistan. *Academic Journal of Digital Economics and Stability, 39*(2), 259–267. https://doi.org/10.51699/economics.v39i2.1205

Republic of Uzbekistan. (2016). *Customs Code of the Republic of Uzbekistan.* https://lex.uz/docs/2876354

Saidov, A., Dustmukhamedov, A., & Khakimova, F. (2024). Problematic issues in the organization of customs control related to the application of artificial intelligence methods. *AIP Conference Proceedings, 3004*(1), Article 050003.

Singh, R. (2026). *The role of artificial intelligence in customs clearance and export-import documentation*. SSRN. https://doi.org/10.2139/ssrn.6737918

Russel, S. J., & Norvig, P. (2021). *Artificial intelligence: A modern approach* (4th ed.). Pearson.

United Nations Conference on Trade and Development. (2025). *Trade and development report 2025: On the brink: Trade, finance and global uncertainty*. Stylus Publishing.

YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

2026-YIL 5-SON

VOLUME 6 / ISSUE 5 / 2026

DOI: https://dx.doi.org/10.51788/tsul.jurisprudence.65

DOI: https://dx.doi.org/10.51788/tsul.jurisprudence